

“Shahidlar xotirasi” muzeyiga tashrif

✘ 2018 yil 12 oktyabr kuni Gidromelioratsiya fakulteti, Suv xo'jaligi va melioratsiya ta'lim yo'nalishining 304-guruh talabalari guruh murabbiysi Z.Beknazarova bilan birgalikda “Shahidlar xotirasi” muzeyiga tashrif buyurishdi. “Shahidlar xotirasi” majmuasi mustabid tuzum davrida zulm va tajovuz qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz xotirasiga ko'rsatilgan ulkan ehtiramning yorqin ifodasidir. Bu yerda ajdodlari xotirasini yod etishga kelganlar, ayniqsa, yoshlar bugungi tinch va osoyishta, to'kin va farovon hayotga qanday og'ir yo'qotishlar, sinovlar va mashaqqatlar evaziga erishganimizni angelaydi, tinchlikning, mustaqillikning naqadar buyuk ne'mat ekanini teranroq his etadi. Bugungi ozod va obod kunlarni orzu qilgan, shu yo'lda o'z hayotini ham ayamagan ajdodlarimizning xotirasini yod etar ekanmiz, istiqlol tufayli yurtimizda tarixiy adolat qaror topganiga, xalqimiz o'tmishdan saboq chiqarib, buyuk kelajak sari dadil intilayotganiga, bunda tabarruk qadamjolar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz.

GM fakulteti dekan o'rinbosari X.Tuychiyev axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov